



TOSHKENT VILOYATI PARKENT TUMAN HOKIMI F A R M O Y I S H I

2022 - yil 26 - may

83-10-141-F/22

Parkent tuman hokimligi

Mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksiga, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrda "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-742-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-146-son qarori va Xalq deputatlari Parkent tumani Kengashining 2022-yil 4-martdagi VI-44-24-10-141-K/22-sonli qaroriga asosan va Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 14-maydagi 169-10-0-F/22-sonli farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida hamda tuman hokimining o'rinbosari oil va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i M. Inoyatovanning bildirgisini inobatga olib:

1. Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 14-maydagi "Yangi O'zbekistonning ibratli oilasi" ko'rik-tanlovining yuqori saviyada tashkil etish va oila, xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish hamda viloyat hokimining 2022-yil 19-apreldagi 132-10-0-F/22-sonli farmoyishiga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi 169-10-0-F/22-sonli farmoyishi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent viloyati mahalliy budjetining 2022-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan ajratilgan **186,0** (bir yuz sakson olti) million so'm mablag' Parkent tumani mahalliy budjetiga qabul qilinsin va Oila va xotin-qizlar bo'limining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va xotin-qizlar faollari uchun planshet xarid qilish maqsadida **186,0** (bir yuz sakson olti) million so'm mablag' tuman hokimligiga yo'naltirilsin.

3. Tuman hokimligi Moliya bo'limi (A.To'layev) tegishli hujjatlarni belgilangan tartibda Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi dasturiy majmuasida rasmiylashtirishni ta'minlasin.

4. Tuman G'aznachilik bo'linmasi (R.Yo'ldoshov) ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda o'tkazilishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.Ma'diyev) ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda maqsadli sarflanishini ta'minlasin.

6. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'ellikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari iqtisodiy taraqqiyot va

kambagʻallikni qisqartirish boʻlimi boshligʻi Y. Abduxamidov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Sh. Shoaxmedov